

SOLIQ NIZOLARINI KO'RISHNING IXTISOSLASHTIRILGAN SUD TIZIMINI YARATISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI

Qurbonov Abdulaziz Sulton o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti, Toshkent, O'zbekiston.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15605553>

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot soliq nizolarini ko'rishda ixtisoslashtirilgan sud tizimini yaratishning zamonaviy konsepsiyalarini yoritadi. Soliq masalalarining o'ziga xos murakkabligi va xalqaro tajribalarga asoslangan holda, bunday sud tizimini joriy etishning dolzarbligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Muallif O'zbekistonda mavjud iqtisodiy sudlarning umumiy yondashuvlari soliq nizolarini chuqur ekspertizaga tayangan holda hal qilishga yetarli emasligini ta'kidlab, ixtisoslashgan sud institutini shakllantirishning iqtisodiy barqarorlik va investorlar ishonchini oshirishdagi o'rni haqida fikr yuritadi. Shu bilan birga, tadqiqotda Germaniya, AQSh, Singapur va Yaponiya kabi davlatlar tajribasi tahlil qilinib, elektron sudlov tizimi imkoniyatlari va soliq nizolarining shaffof hal etilishiga oid takliflar ilgari suriladi. Tadqiqot ilmiy va amaliy yondashuv asosida soliq nizolarini adolatli va samarali ko'rishning istiqbolli mexanizmlarini taqdim etadi.

Kalit so'zlar: soliq nizolari, ixtisoslashtirilgan sud, iqtisodiy sud, investor huquqlari, xalqaro tajriba, elektron sudlov tizimi, moliya-huquqiy ekspertiza, shaffof sudlov, sud islohotlari, adolatli sudlov.

СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ СОЗДАНИЯ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОЙ СУДЕБНОЙ СИСТЕМЫ ПО РАССМОТРЕНИЮ НАЛОГОВЫХ СПОРОВ

Аннотация. В данном исследовании освещаются современные концепции создания специализированной судебной системы для рассмотрения налоговых споров. Учитывая присущую налоговым вопросам сложность и международный опыт, актуальность введения такой судебной системы научно обоснована. Автор подчеркивает, что общие подходы существующих экономических судов в Узбекистане недостаточны для разрешения налоговых споров на основе глубокой экспертизы, и рассматривает роль формирования специализированного судебного института в повышении экономической стабильности и доверия инвесторов. В то же время в исследовании анализируется опыт таких стран, как Германия, США, Сингапур и Япония, и выдвигаются предложения по возможностям электронной судебной системы и прозрачного разрешения налоговых споров. В исследовании представлены перспективные механизмы справедливого и эффективного рассмотрения налоговых споров на основе научного и практического подхода.

Ключевые слова: налоговые споры, специализированный суд, хозяйственный суд, права инвесторов, международный опыт, электронное судопроизводство, финансово-правовая экспертиза, прозрачное правосудие, судебные реформы, справедливый суд.

MODERN CONCEPTS OF CREATING A SPECIALIZED COURT SYSTEM FOR REVIEWING TAX DISPUTES

Abstract. This study highlights modern concepts for creating a specialized judicial system for considering tax disputes. Given the inherent complexity of tax issues and international experience, the urgency of introducing such a judicial system is scientifically justified. The author emphasizes that the general approaches of existing economic courts in Uzbekistan are insufficient to resolve tax disputes based on in-depth expertise, and considers the role of the formation of a specialized judicial institution in increasing economic stability and investor confidence. At the same time, the study analyzes the experience of countries such as Germany, the USA, Singapore and Japan, and puts forward proposals for the possibilities of an electronic judicial system and transparent resolution of tax disputes. The study presents promising mechanisms for fair and effective consideration of tax disputes based on a scientific and practical approach.

Keywords: tax disputes, specialized court, economic court, investor rights, international experience, electronic court system, financial and legal expertise, transparent justice, judicial reforms, fair trial.

Soliq nizolari barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular davlat fiskal siyosati, moliyaviy barqarorlik, tadbirkorlik muhiti va jamiyatning huquqiy tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Soliq organlari bilan tadbirkorlar, yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar o'rtasida yuzaga kelgan bu nizolar ko'pincha yirik moliyaviy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois, ularni hal etishda tezkorlik, xolislik, qonuniylik va mutaxassislikning ustuvor ahamiyati bor.

Soliq nizolarining samarali hal qilinmasligi davlatning fiskal barqarorligiga, investorlar ishonchiga va milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda O'zbekistonda soliq nizolari hozirda iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqilmoqda. Biroq iqtisodiy sudlar keng doiradagi ishlarni ko'rib chiqadi: mulkiy nizolar, shartnoma muammolari, bank va bojxona ishlari. Shu sababli, soliq masalalari ko'pincha yetarlicha chuqur ekspertizaga tayangan holda hal qilinmaydi. Bu esa, o'z navbatida, qonuniylik va adolat tamoyillarining buzilishiga olib keladi.[1. 173-176.]

Xorijiy olimlarning fikrlari ushbu masalada alohida ahamiyatga ega. Masalan, amerikalik tadqiqotchi Bryan T. Camp o'zining "Tax Administration as Procedural Justice" tadqiqotsida soliq organlari faoliyatining sud nazoratisiz samarador bo'lishi qiyinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, soliq nizolari nafaqat moliyaviy masala, balki ma'muriy adolat prinsipining ifodasidir.

Sudlarning mutaxassisligi oshgan sari, taraflar o'rtasidagi ishonch tiklanadi va jarayonlar shaffoflashadi.[2. 331–399]

Shu bilan birga, rossiyalik yuridik olim A.V. Krotov ham soliq sudlarining ixtisoslashuvini ma'muriy adolatning muhim tarkibiy qismi sifatida ta'kidlaydi. U o'zining "Специализация судов и эффективность правосудия" nomli asarida, sud tizimida ixtisoslashuv protsessual samaradorlik va huquqiy aniqlikni oshirishda muhim omil bo'lishini ta'kidlab o'tadi. Krotovga ko'ra, iqtisodiy va soliq sudlarini ajratib ko'rish nafaqat ma'muriy qulaylik, balki jamiyat ishonchini mustahkamlovchi vositadir.[3. 245-255.]

Germaniyalik mutaxassis Klaus Tipke esa o'zining "Steuerrecht: Ein Studienbuch" asarida Federal Soliq sudi (Bundesfinanzhof) faoliyatini tahlil qiladi. U Germaniyadagi soliq sudlarining asosiy afzalligi — qonunlarni bir xilda talqin qilish va iqtisodiy vositalarni yuridik mezonlarga moslashtirishga erishish ekanligini ko'rsatadi. Bu esa, soliq nizolarining ixtisoslashtirilgan sudlarda ko'rib chiqilishi shartligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston sharoitida esa, bu yo'nalish hali yangi va rivojlanayotgan jarayon hisoblanadi.

Mahalliy tadqiqotchi M.N. Yusupovning "Sud-huquq tizimining ixtisoslashuvi va uning islohotlar jarayonidagi o'rni" tadqiqotsida iqtisodiy sudlar tarkibida ixtisoslashtirilgan sudlar tashkil etish zarurati asoslab berilgan. Uning fikricha, soliq sohasidagi murakkab nizolarni umumiy iqtisodiy sudlar hal qilishga urinishi sud jarayonlarining sifatiga va adolat tamoyillariga putur yetkazadi.

Shu bilan birga, N.A. Mustafoyevning "O'zbekiston soliq qonunchiligining evolyutsiyasi" monografiyasida soliq organlari ustidan sud nazoratining zaifligi va ixtisoslashgan sudlar joriy etish orqali byurokratik muammolar kamayishi mumkinligi qayd etilgan.[4. 245-255.]

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5482 farmoni "Sud-huquq tizimini isloh qilish va iqtisodiy sudlovda ixtisoslashtirishni kuchaytirish" dolzarb yo'nalish sifatida belgilandi. Bu esa, davlatning soliq siyosatini adolatli va shaffof amalga oshirishda ixtisoslashtirilgan sud tizimini yaratishning muhimligini yana bir bor ko'rsatadi.[5.lex.uz]

Shuningdek, globallashtirish jarayonlari, xalqaro savdoning faollashuvi va O'zbekistonda soliqqa tortish bazasining kengayishi sharoitida mavjud sud tizimi murakkab soliq nizolarini hal etishda yetarli emasligi tobora yaqqol ko'rinmoqda.

Soliq qonunchiligidagi tezkor o'zgarishlar, texnik tafovutlar va murakkab moliyaviy nizolar umumiy iqtisodiy sudlar tomonidan hal qilinayotgani — investorlar va tadbirkorlar huquqlarini himoya qilishdagi muammolarga sabab bo'lmoqda. Bu esa, jamiyatda adolatli sudlovga bo'lgan ishonchni pasaytiradi va iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu o'rinda xalqaro tajriba ham e'tiborga molik. Germaniyada Federal Soliq sudi, AQShda United States Tax Court, Singapurda "Tax Board of Review" va Yaponiyada soliq nizolarini hal qiluvchi maxsus apellyatsiya kengashlari mavjud. Ularning tajribasi shuni ko'rsatadiki, ixtisoslashtirilgan sudlar nafaqat nizolarni samarali hal qiladi, balki huquqiy barqarorlik va normativ-huquqiy baza rivojlanishiga turtki beradi.

Bugungi global iqtisodiyot sharoitida xorijiy davlatlarning soliq sudlovidagi tajribalari O'zbekiston uchun qimmatli namuna vazifasini o'taydi. Germaniya, AQSh, Singapur va Yaponiyada shakllangan ixtisoslashtirilgan soliq sudlari samaradorlik va shaffoflikka xizmat qiluvchi ilg'or institutlar sifatida tan olingan. O'zbekiston sharoitida esa bu tajribalardan o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda.[6.2022]

Quyidagi jadvalda asosiy xorijiy davlatlarda faoliyat yuritayotgan ixtisoslashtirilgan soliq sudlarining asosiy jihatlari ko'rsatib o'tilgan:

Xorijiy davlatlarda faoliyat yuritayotgan ixtisoslashtirilgan soliq sudlarining asosiy jihatlari

Davlat	Maxsus Soliq Sudi/Organ	Ish ko'rib chiqish muddati	Sudyalarning tayyorgarligi	Jarayonning shaffofligi
Germaniya	Bundesfinanzhof (Federal Soliq sudi)	O'rtacha 6-12 oy	Moliya va soliq huquqi bo'yicha ixtisoslashgan	Sud qarorlari ochiq e'lon qilinadi
AQSh	United States Tax Court	O'rtacha 9 oy	Moliya-huquqiy bilimga ega sudyalar	Ochiq sud majlislari va elektron ma'lumotlar tizimi
Singapur	Tax Board of Review	2-3 oy	Arbitraj va soliq nizolari bo'yicha malakali mutaxassislar	Elektron e'lonlar va tezkor hal etish mexanizmi
Yaponiya	Apellyatsiya kengashlari va sudlar	3-6 oy	Soliq qonunchiligi bo'yicha ixtisoslashgan organlar	Jarayon ikki bosqichli, suddan oldingi tartib mavjud

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, barcha ushbu davlatlarda soliq sudlari va organlari muayyan tartib va shaffoflik tamoyillari asosida faoliyat olib boradi. Germaniyada Bundesfinanzhof sudyalari moliya va soliq huquqi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lib, ularning qarorlari izchil va qonuniylikka asoslanadi. AQShda United States Tax Court mustaqil organ sifatida faoliyat yuritib, soliq to‘lovchilarning huquqiy himoyasini ta‘minlaydi. Singapurda esa “Tax Board of Review” tezkor va shaffof arbitrajga asoslangan sudlov mexanizmini taqdim etadi. Yaponiya tajribasi esa ikki bosqichli yondashuvi bilan ajralib turadi: dastlab ma‘muriy apellyatsiya kengashlarida muammo ko‘rib chiqiladi, keyinchalik sudga murojaat qilinadi.[7.245-249]

Jadval tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ixtisoslashtirilgan sudlar xorijiy amaliyotda sud jarayonlarini yengillashtiradi, taraflar o‘rtasida ishonchni oshiradi va qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu tajribalar soliq qonunchiligi rivoji va normativ-huquqiy bazaning izchil shakllanishiga ham hissa qo‘shadi.

O‘zbekistonda esa amaldagi iqtisodiy sudlar hozircha umumiy yondashuvga tayangan holda soliq nizolarini ko‘rib chiqadi. Bu esa, yuqoridagi xorijiy tajriba bilan taqqoslaganda, bir qator kamchiliklarni yuzaga chiqaradi. Jumladan, sudyalar moliya va soliq sohasidagi chuqur tayyorgarlikka ega emasligi, jarayonning shaffof emasligi va ekspertiza yetishmasligi jiddiy muammolar sifatida tilga olinadi.

Mahalliy olimlar fikricha, xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali O‘zbekiston sharoitiga moslashgan ixtisoslashtirilgan sud tizimini yaratish mumkin. Masalan, professor M.N. Yusupovning fikriga ko‘ra, “ixtisoslashtirilgan sudlar soliq nizolarining moliyaviy va huquqiy murakkab jihatlarini inobatga olib, sudlov jarayonini sifat jihatidan yaxshilaydi”. Shuningdek, N.A. Mustafoyev xorijiy tajriba asosida byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va sarmoyaviy muhitni yaxshilash zarurligini alohida ta‘kidlaydi.

Ayni paytda O‘zbekiston Prezidenti tomonidan tasdiqlangan Pf-4850-sonli farmonda ham xorijiy davlatlar tajribasini mahalliy sharoitga moslashtirish, ixtisoslashtirilgan sud tizimini bosqichma-bosqich joriy etish vazifalari qayd etilgan. Bunga ko‘ra, dastlab iqtisodiy sudlar tarkibida alohida soliq nizolari bo‘yicha palatalar tashkil etilishi mumkin. Bu jarayon xorijiy modellardan eng yaxshi jihatlarni tanlab olish va ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu o‘rinda, elektron sudlov tizimining (e-sud) ahamiyati ham e‘tibordan chetda qolmasligi kerak. Xorijiy tajribada, jumladan Singapurda, elektron shaklda qarorlarni e‘lon qilish, elektron hujjatlar almashinuvi va onlayn sud majlislari samarali natija bergan.

O'zbekiston sharoitida ham, soliq hisobotlarining aksariyati allaqachon elektron shaklda olib borilayotgani sababli, e-sud imkoniyatlarini rivojlantirish soliq nizolarini ko'rib chiqishning shaffofligini va tezkorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Umumiy qilib aytganda, xorijiy davlatlarning tajribasi soliq nizolarini ko'rishda ixtisoslashtirilgan sud tizimining adolatli va samarali yechim bo'lishini tasdiqlaydi. Shu asosda O'zbekiston ham bosqichma-bosqich, zamonaviy yondashuvlar va xorijiy tajribalar asosida ushbu institutni yaratishga harakat qilishi lozim. [8.54-58]

Xorijiy tajriba va mahalliy huquqiy islohotlar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ixtisoslashtirilgan soliq sud tizimi nafaqat soliq nizolarini hal qilishning samaradorligini oshiradi, balki umuman jamiyatning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ham muhim o'rin egallaydi. Bunday institutning afzalliklari, birinchidan, sud jarayonining shaffofligini ta'minlash va taraflar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash bilan bog'liqdir. Soliq sohasidagi murakkab masalalarni umumiy iqtisodiy sudlar emas, balki moliya va soliq huquqi bo'yicha chuqur tayyorgarlikka ega bo'lgan sudyalarning hal qilishi taraflar manfaatini to'liq himoya qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, ixtisoslashtirilgan sud tizimi soliq nizolarining qonuniy va yagonalikda talqin qilinishini ta'minlaydi. Germaniya yoki AQSh tajribasida kuzatilganidek, ixtisoslashtirilgan sudlar soliq qonunchiligidagi noaniqlik va turli talqinlarga barham beradi. Bu esa huquqiy barqarorlikni ta'minlab, tadbirkorlar va investorlar uchun ishonchli muhit yaratadi. Shu bois, O'zbekistonda bunday tizimning joriy etilishi milliy qonunchilikning izchil rivojlanishiga ham hissa qo'shadi.

Uchinchidan, ixtisoslashtirilgan sudlar soliq nizolarini ko'rib chiqishda professional ekspertiza va zamonaviy yondashuvlarga tayanadi. Bu esa, sud qarorlarining asosli, izchil va adolatli bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa, zamonaviy elektron sudlov vositalari bilan uyg'unlashganda, jarayon yanada shaffof va samarali bo'ladi. Masalan, Singapur tajribasida "Tax Board of Review" qarorlarining elektron tizimda e'lon qilinishi va sud majlislarining ochiqligi ishonch muhitini yanada oshirgan.

O'zbekiston sharoitida bu tizimni amalga oshirish bo'yicha bir nechta yo'nalishlarni alohida ta'kidlash mumkin. Avvalo, mavjud iqtisodiy sudlar tarkibida maxsus soliq nizolari palatalarini tashkil etish – amaliy jihatdan qulay va bosqichma-bosqich joriy etilishi mumkin bo'lgan yo'nalishdir. Bunda soliq nizolari bo'yicha sudlov ishlarini alohida mutaxassis sudyalarning ko'rib chiqadi va jarayonning sifatini oshiradi.

Keyingi muhim yo'nalish — sudyalar va ekspertlarning malakasini oshirish. Soliq qonunchiligidagi murakkabliklar va tezkor o'zgarishlarni hisobga olib, sudyalar uchun moliya-huquqiy bilimlarni oshirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslarini tashkil etish zarur. Shu bilan birga, sud tizimiga elektron hujjatlar almashinuvi va masofaviy ishtirok imkoniyatlarini keng joriy etish jarayonning zamonaviy talablarga moslashishini ta'minlaydi.

Shuningdek, xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirishda muvozanatli yondashuv zarur. Germaniya va AQShdagi mustaqil soliq sudlari yoki Yaponiyadagi ikki bosqichli yondashuvdan ilhomlanib, O'zbekiston uchun eng maqbul modelni shakllantirish mumkin. Bu borada milliy manfaatlar, iqtisodiy barqarorlik va investorlarning huquqiy xavfsizligi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Umumiy qilib aytganda, ixtisoslashtirilgan soliq sud tizimini yaratish – bu nafaqat huquqiy adolat tamoyillarini mustahkamlash, balki mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishonchli hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim qadamdir. Bu tizim davlat fiskal siyosatini izchil amalga oshirishga, tadbirkorlar va davlat organlari o'rtasidagi nizolarni shaffof, tezkor va adolatli hal qilishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, O'zbekiston sharoitida xorijiy tajriba asosida va mahalliy ehtiyojlarni inobatga olgan holda, ixtisoslashtirilgan soliq sud tizimini bosqichma-bosqich amalga oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Xulosa

Soliq nizolarini ko'rishda ixtisoslashtirilgan sud tizimini yaratishning zamonaviy konsepsiyalari dolzarb va muhim masala sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston sharoitida soliq nizolari ko'pincha umumiy iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqilmoqda, biroq bu sudlarning moliyaviy va soliq huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, sudlov jarayonida shaffoflikning pastligi, huquqiy barqarorlik va adolat tamoyillariga putur yetkazmoqda. Shu bois, xorijiy tajribalarga asoslanib, O'zbekistonda ixtisoslashgan soliq sud tizimini yaratishning ehtiyoji tobora oshmoqda.

Xorijiy amaliyot, jumladan Germaniya, AQSh, Singapur va Yaponiya tajribalari, ixtisoslashtirilgan sudlarning soliq nizolarini tezkor, professional va shaffof tarzda hal qilishga imkon berishini ko'rsatadi. Bu tajribalar soliq qonunchiligi barqarorligini mustahkamlash, sud qarorlarining yagona va izchil bo'lishini ta'minlash hamda investorlar va tadbirkorlar uchun huquqiy xavfsizlikni oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida bunday tizimni yaratishning ilk qadami sifatida iqtisodiy sudlar tarkibida alohida palatalar shakllantirilishi mumkin. Shu bilan birga, sudyalar va ekspertlarning moliya-huquqiy malakasini oshirish, elektron sudlov vositalaridan samarali foydalanish muhim

ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon soliq nizolarini tezkor va adolatli hal qilish, shuningdek, sud islohotlari va davlat fiskal siyosati barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ixtisoslashtirilgan sud tizimi jamiyatda qonun ustuvorligi va adolatli sudlov tamoyillarini mustahkamlash uchun muhim qadam bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bekzod o'g'li, J. F. (2024). O'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH. *Международный журнал теории новейших научных исследований*, 2(10), 173-176.
2. Camp, B. T. (2004). *Tax Administration as Procedural Justice*. *Florida Tax Review*, 6(2), 331–399.
3. Krotov, A. V. (2012). *Специализация судов и эффективность правосудия*. Москва: Юридическая литература. 245-255.
4. Yusupov, M. N. (2021). *Sud-huquq tizimining ixtisoslashuvi va uning islohotlar jarayonidagi o'rni*. "Huquqiy islohotlar" ilmiy jurnali, №2, 45–54.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.07.2018 yildagi PF-5482-son
6. Bundesfinanzhof (Federal Tax Court of Germany). (2022). *Annual Report of Jurisprudence*.
7. Tipke, K., & Lang, J. (2000). *Steuerrecht: Ein Studienbuch*. Köln: Dr. Otto Schmidt Verlag. 245-249.
8. Ortiqmirzayev, I. (2024). SUD HUQUQ TIZIMIDAGI HUJJATLAR BILAN ISHLASHNING DOLZARBLIGI. *Journal of science-innovative research in Uzbekistan*, 2(10), 54-58.
9. Mustafoev, N. A. (2020). *O'zbekiston soliq qonunchiligining evolyutsiyasi: muammo va yechimlar*. Toshkent: Adolat nashriyoti.
10. OECD (2017). *Tax Dispute Resolution: Country Experiences*. OECD Publishing. Retrieved from: <https://www.oecd.org>
11. USA Tax Court Website. (2023). *About the United States Tax Court*. Retrieved from: <https://www.ustaxcourt.gov>
12. Singapore Ministry of Finance. (2021). *Tax System and Dispute Resolution Procedures in Singapore*. Retrieved from: <https://www.mof.gov.sg>
13. Retrieved from: <https://www.bundesfinanzhof.de>
14. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahriri). Qabul qilingan sana: 30.12.2019. Kuchga kirgan: 01.01.2020. – Lex.uz portali: <https://lex.uz>